

BARQAROR INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISHNING XITOIY TAJRIBASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-577-581>

Maxmasobirova Nigora Uktam qizi

PhD, katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

m_nigora93@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasida barqaror investitsiyalarni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan siyosat, institutsional mexanizmlar hamda moliyaviy islohotlar tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) mezonlariga asoslangan investitsiyalar tizimini rivojlantirish zaruriyati bilan belgilanadi. Xitoyning yashil obligatsiyalar bozori, yashil kredit siyosati va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan innovatsion texnologiyalar sohasi misolida barqaror investitsiyalarni samarali joriy etish tajribasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: barqaror investitsiyalar, yashil iqtisodiyot, ESG mezonlari, yashil obligatsiyalar, Xitoy tajribasi, yashil kredit, ekologik siyosat.

Annotation. This article analyzes the policies, institutional mechanisms, and financial reforms implemented in the People's Republic of China to promote sustainable investments. The relevance of the topic is determined by the need to develop an investment system based on Environmental, Social, and Governance (ESG) criteria to ensure sustainable economic growth. The study highlights China's experience in effectively implementing sustainable investments through examples such as the green bond market, green credit policy, and state-supported innovative technologies.

Keywords: sustainable investments, green economy, ESG criteria, green bonds, China's experience, green credit, environmental policy.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyoti global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi sharoitida yangi rivojlanish modeliga ehtiyoj sezmoqda. Ana shu sharoitda barqaror investitsiyalar konsepsiyasi – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarning uyg'unligini ta'minlaydigan sarmoyaviy yondashuv – muhim o'rin egallamoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi bu borada jahon miqyosida eng ilgʻor tajribalardan birini namoyish qilib, soʻggi oʻn yillikda “yashil iqtisodiyot”, “uglerod neytralligi” va “barqaror moliya” siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatda yashil obligatsiyalar bozori, ESG (Environmental, Social, Governance) meʼzonlariga asoslangan investitsiyalar va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgan yashil texnologiyalar tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, Xitoydek bir necha oʻn yillik amaliyotga ega mamlakat tajribasini oʻrganish Oʻzbekiston kabi oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun barqaror investitsiya tizimini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega boʻlishi mumkin. Zero, Xitoyda sanoatlashuv jarayonlari nihoyatda tez kechgan boʻlsa-da, mamlakat bu jarayonni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan muvaffaqiyatli uygʻunlashtira oldi (World Bank, 2023).

Metodologiya va adabiyotlar sharhi

Mazkur tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil usullari qoʻllanildi. Xitoyda barqaror investitsiyalarni rivojlantirish boʻyicha davlat siyosati, moliyaviy instrumentlar va institutsional mexanizmlar xalqaro hisobotlar hamda ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud adabiyotlar tahlili orqali Xitoy tajribasining asosiy yoʻnalishlari aniqlanib, ularning Oʻzbekiston sharoitida qoʻllash imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot natijalari sifat jihatdan tahliliy yondashuv asosida umumlashtirildi.

Soʻnggi yillarda Xitoyda barqaror investitsiyalar masalasi nafaqat iqtisodiy siyosat, balki ilmiy tadqiqotlar doirasida ham keng muhokama qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, barqaror investitsiyalar mamlakatning ekologik xavfsizligini taʼminlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy oʻsishni uzoq muddatda barqarorlashtirishda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Li va Wang (2023) oʻz tadqiqotida Xitoyning 30 ta provinsiyasi misolida yashil investitsiyalar darajasi va ularning barqaror rivojlanishga taʼsirini oʻrgangan. Mualliflar panel maʼlumotlar asosida yashil investitsiyalar darajasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, balki qoʻshni hududlarga ham ijobiy taʼsir (spatial spillover) koʻrsatishini aniqlaganlar. Bu natijalar Xitoyda mintaqaviy siyosatni uygʻunlashtirish zarurligini koʻrsatadi.

Shunga yaqin yondashuvni Liu (2024) ham oʻz ishida qoʻllagan boʻlib, u yashil investitsiyalar va yashil rivojlanish darajasi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni empirik tahlil qilgan. Tadqiqotda oraliq omil sifatida innovatsion faoliyat – yangi texnologiyalar va ixtirolar kiritilgan boʻlib, ular yashil investitsiyalar samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida talqin etilgan. Bu yondashuv Xitoyda texnologik innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlashning ekologik barqarorlik uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Chien va boshqalar (2023) esa barqaror investitsiyalar, ekologik innovatsiyalar va moliyaviy inkluzivlik o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilgan. Ularning tadqiqotiga ko'ra, yashil investitsiyalar moliyaviy imkoniyatlar kengayishi bilan birgalikda inson rivojlanishi indeksiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar Xitoy iqtisodiy tizimida ekologik va ijtimoiy omillarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Zhu (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot korporativ darajadagi ESG investitsiyalarining karbon intensivligiga ta'sirini tahlil qiladi. U 2011–2022 yillar oralig'idagi ESG investitsiyalari korxonalarning karbon chiqindilarini kamaytirishda sezilarli natija berishini aniqlagan va bu barqaror investitsiyalar nafaqat makro, balki mikroiqtisodiy darajada ham ijobiy ekologik ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar Xitoyda barqaror investitsiyalarni rag'batlantirish iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va innovatsion taraqqiyot o'rtasida muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur yo'nalish bo'yicha siyosiy, moliyaviy va texnologik mexanizmlarni yanada chuqurlashtirish Xitoy tajribasining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Natijalar va muhokama

Xitoyda barqaror investitsiyalar siyosati 2000-yillarning boshlaridan boshlab bosqichma-bosqich shakllandi. 2005-yilda Xitoy Xalq Respublikasi hukumati ekologik barqarorlikni iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida belgiladi va "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini ilgari surdi (UNEP, 2016). Shu davrdan boshlab, mamlakatda investitsiyalarni ekologik mezonlar asosida yo'naltirish siyosati boshlangan.

2015-yilda Xitoy hukumati "Yashil moliyalashtirish tizimi bo'yicha yo'l xaritasi"ni e'lon qildi. Ushbu siyosat doirasida yashil obligatsiyalar, ekologik loyihalarni kreditlash va ekologik xavf tahlilini bank tizimiga integratsiya qilish kabi mexanizmlar joriy etildi (People's Bank of China, 2016). Bu tashabbuslar Xitoyni dunyoda yashil obligatsiyalar bozorining yetakchi ishtirokchisiga aylantirdi. 2023-yil holatiga ko'ra, Xitoy yashil obligatsiyalar hajmi 280 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va global bozorning qariyb 25 foizini tashkil etdi (Climate Bonds Initiative, 2024).

Barqaror investitsiyalarni kengaytirish yo'lida Xitoy 2016-yilda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)ni milliy rivojlanish strategiyasiga kiritdi (UNDP China, 2022). "14-besh yillik reja" (2021–2025) doirasida yashil energetika, uglerod neytralligi va ekologik infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi (State Council of China, 2021). Shuningdek, Xitoy

bank tizimi 2012-yildan buyon “Green Credit Guidelines” asosida ishlashga o‘tdi va bu tizim ekologik zarar keltiruvchi loyihalarni moliyalashtirishni cheklaydi, ekologik jihatdan toza loyihalarga esa imtiyozli kreditlar beradi (China Banking and Insurance Regulatory Commission, 2023). Natijada, Xitoyda 2010–2023 yillar davomida “yashil iqtisodiyot” tarmoqlaridagi investitsiyalar hajmi 8 baravar oshib (World Bank, 2023), qayta tiklanuvchi energiya sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2023-yilda 290 milliard AQSh dollariga yetdi, bu esa dunyo bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi (IEA, 2024).

Shu bilan bir qatorda 2022-yilda Xitoy moliya bozori regulyatorlari kompaniyalar uchun majburiy ESG hisobotlarini joriy qilishni boshladi va bu korxonalarining ekologik va ijtimoiy mas‘uliyatini oshirdi (UN PRI, 2023). Bundan tashqari, Xitoy o‘zining “ikki uglerod maqsadi” (2030-yilgacha uglerod chiqindilarini kamaytirish va 2060-yilgacha uglerod neytralligi) orqali uzoq muddatli barqarorlik strategiyasini belgilab oldi (China State Council, 2021).

Umumiy qilib aytganda xitoy modeli iqtisodiy o‘shishni ekologik barqarorlik bilan birlashtirishda bir necha ustunliklarga ega (UNEP, 2022):

- Markazlashgan boshqaruv orqali ekologik siyosatni tez va izchil amalga oshirish imkoniyati;
- Moliyaviy institutlar faoliyatida “yashil reyting” tizimining mavjudligi;
- Innovatsion texnologiyalarni davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmlari;
- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda “yashil investitsiya platformalari”ni yaratish.

Shunday qilib, Xitoyda barqaror investitsiyalar siyosati dastlab ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda u iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Ushbu siyosatning muvaffaqiyati davlat boshqaruvi, moliya sektori va xususiy sektor o‘rtasidagi uzviy hamkorlik orqali ta‘minlanmoqda.

Xulosa

Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror investitsiyalarni rivojlantirish uchun davlat siyosati, moliyaviy institutlar va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik zarur. Xitoyning yashil moliya tizimi iqtisodiy o‘shishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishmoqda.

O‘zbekiston uchun bu tajribaning quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

- yashil obligatsiyalar va yashil kreditlar bozorini yaratish;
- ESG hisobotlarini joriy qilish orqali investitsiyalarni shaffoflashtirish;
- energiya tejankor texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish;
- davlat va xususiy sektor o‘rtasida “yashil sheriklik”ni rivojlantirish.

Xitoyning kompleks yondashuvi O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi – 2030” dasturini amalga oshirishda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank (2023). *China’s Green Finance Progress Report*. Washington, DC.
2. UNEP (2016). *Green Economy and Sustainable Investment Principles*. United Nations Environment Programme.
3. People’s Bank of China (2016). *Guidelines for Establishing the Green Financial System*. Beijing.
4. Climate Bonds Initiative (2024). *China Green Bond Market Report 2023*. London.
5. UNDP China (2022). *China and the Sustainable Development Goals*. Beijing.
6. State Council of China (2021). *Outline of the 14th Five-Year Plan (2021–2025)*. Beijing.
7. China Banking and Insurance Regulatory Commission (2023). *Green Credit Guidelines Implementation Review*. Beijing.
8. IEA (2024). *World Energy Investment Report 2024*. Paris.
9. UN PRI (2023). *Responsible Investment in China: ESG Integration Report*.
10. China State Council (2021). *China’s Carbon Neutrality Targets and Green Transition*. Beijing.
11. Li, L., & Wang, H. (2023). *Influence of Green Investment on China’s Sustainable Development*. **Sustainability**, 15(12), 9804. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/12/9804>
12. Liu, J. (2024). *An Empirical Analysis of the Impact of Green Investment on China's Green Development Level: Based on Mediating and Spatial Spillover Effects*. **Advances in Economics, Management and Political Sciences**, Vol. 73. <https://www.ewadirect.com/proceedings/aemps/article/view/10486>
13. Chien, F. S., et al. (2023). *The Impact of Green Investment, Eco-Innovation, and Financial Inclusion on Sustainable Development: Evidence from China*. **Engineering Economics**, 34(1). <https://inzeko.ktu.lt/index.php/EE/article/view/32159>
14. Zhu, L. (2023). *Study on the Impact of ESG Investment on Corporate Carbon Intensity*. **Scientific Journal of Economics and Management Research**. <https://bcpublication.org/index.php/SJEMR/article/view/8604>
15. UNEP (2022). *Green Economy and Sustainable Investment Principles*. United Nations Environment Programme.